



YOZUVCHILAR IJODINI TANITISH ORQALI ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

(Isajon Sulton asarlari misolida)

Ergasheva Sug'diyona

Qo'qon universiteti tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 45

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1158>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

adabiy turizm, SWF, GOLDEN WORD, raqamli texnologiya, kontent marketing, virtual sayohat, tarjimashunoslik, adabiy tarjima.

ANNOTATSIYA

Maqolada adabiy turizm va uning turizm sohasida tutgan o'rni, yozuvchilarining ijodini tanitish orqali rivojlanterish yo'llari, sayyohlarga yaratilayotgan quylayiklar, global adabiy festivallar tashkil etish, innovatsion texnologiyalar va raqamli marketingdan foydalanan usullari, tarjimashunoslik sohasidagi yangiliklar va uning adabiy turizm rivojlanishida turgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlarni o'rganish va tanishtirish usullari sezilarli darajada o'zgarmoqda. Adabiy turizm eng muhim va zamonaliviy yo'nalishlardan biri bo'lib, yozuvchilarining ijodiy merosi orqali madaniy almashinuvga yangicha nuqtai nazardan yondashadi, uning asosiy maqsadi yozuvchilar, she'riyat va adabiy meros bilan chambarchars bog'langan joylarni ziyorat qilish orqali sayyohlarni ularga bo'lgan qiziqishini oshirishdir.

Adabiy turizm klassik sayohatlardan farq qiladi u faqatgina yozuvchilarining tug'ilgan joylari va yashagan uylari, mashhur adabiy asarlari yozilgan manzillar yozuvchilarining uy muzeylari, tarixiy adabiy obyektlarni sayr qilish emas, balki yozuvchilarining ichki dunyosiga sayohat qilishdir. Adabiy turizm sayyohga oddiy sayohatdan ko'ra yangi madaniyatlar haqida atroficha ma'lumot olish, ularning o'ziga xos jihatlarini tushunish, tarixiy shaxslar va ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish, dunyoqarashni kengaytirish, asarlarning geografik va tarixiy kontekstini his qilish va eng asosiyi insoniq qadriyatlarni chucherqoq anglab yetish va yozuvchilarining ijodiy dunyosiga kirib borish kabi keng imkoniyatlar, noyob va qimmatli tajribalar beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligidagi turizm sohasida yirik islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, viza rejimi soddalashtirildi, ayni paytda 93 dan ortiq xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun besh kunlik transit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi. Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o'zarboq sifatida targ'ib qilish bo'yicha tashabbusga asosan UNESCOning "Xiva deklaratsiyasi" qabul qilindi. Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Xiva 2024-yil "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi.[1,<https://kun.uz/news/2023/10/16/zbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>] 2023-yil turkiy davlatlar tashkilotining Turizm vazirlarining yig'ilishida Qo'qon shahriga "Ilk turizm poytaxti" nomi berildi. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni ham kundan kunga ortib bormoqda. Joriy yilning boshida Yamanning Hardamawt axborot agentligi O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanterish istiqbollariga bag'ishlangan maqolani e'lon qildi. Unda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Turizm qo'mitasiga 2025-yilda mamlakatga 12 million xorijiy sayyoh kelishi pragnoz qilinmoqda. Shu xususda BBC Travel global media portal ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 25 ta yo'nalish ro'yxatiga kirdi. Maqolada ta'kidlanishicha, turizm O'zbekistonning o'ziga xos an'analarini va madaniy me'rosini saqlash strategiyasining muhim qismiga aylanib bormoqda. Mamlakat infratuzilmani jadal rivojlanirmaoqda, yangi mehnomonxonlar, yuqori tezlikdagi temir yo'l mashrurlari, ichki aviareyslar va yangilangan madaniy diqqatga sazovor joylar sayohatchilar uchun betakror imkoniyatlarni yaratmoqda. 90 dan ortiq mamlakatning, jumladan Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya fuqarolari O'zbekistonga vizasiz tashrif byurishlari mumkinligi sayohatni sezilarli darajada osonlashtiradi va sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar eshidigi ochadi, deyiladi xabarda.[2,<https://wah.news/pages/1>]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada adabiy turizmni rivojlanterishda zamonaliviy yozuvchilarining, xususan, Isajon Sulton ijodining ahamiyati madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va turizm

sohalari kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-kultural tahlil, badiy matn tahlili va komparativ yondashuvlar asosiy metod sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, yozuvchining asarlari asosida yaratilgan turistik marshrutlar, adabiy festival va uchrashuvlarning adabiy turizmga ta'siri empirik dalillar bilan asoslanadi. Isajon Sultonning tarix, she'riyat va zamonalivlikni uyg'unlashtirgan asarlari orqali adabiy meros targ'ib qilish imkoniyatlari yoriltiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Adabiy turizm madaniy merosni saqlash, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va xalqaro miqiyosda tanilish uchun katta imkoniyatga ega. Adabiy festivallarni tashkillashtirish va xalqaro hamkorlikdan foydalanan bu sohani yangi bosqichlarga olib chiqadi.

Yuqorida ta'kidlangan, amalga oshiralayotgan islohotlarga qaramay yozuvchilarining ijodini tanitish orqali adabiy turizmni rivojlanterish to'liq shakllanmagan.

Quyidagi omillar adabiy turizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- uning asosan lokal sayyohlar uchun mo'ljallanganligi,
- marketing strategiyasining zaifligi,
- raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalananmaslik,
- Adabiy festivallarni aniq va izchil rejaga asoslangan holda tashkillamaslik;

Tarjimashunoslik sohasidagi ayrim kamchiliklar:

- xalqaro tarjima muassasalari bilan cheklangan a'lloqalar,
- xalqaro nashriyotlarda o'zbek adabiyotiga qiziqishning pastligi,
- yurtimizda badiiy asarlarni chet tiliga mukammal tarjima qila oladigan professional tarjimashunoslarning yetishmasligi,
- zamonaliv o'zbek adabiyotining jahon tillariga yetarli darajada tanitilmasligi,
- milliy kolorit va madaniy konteksti saqlab qolish qiyinchiligi,
- o'zbek tilidagi o'ziga xos iboralar va tushunchalarni boshqa tillarga to'g'ri tarjima qilishdagi muammolar.

Yozuvchilar ijodini tanitish orqali adabiy turizmni rivojlanterishning quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

1.Global adabiy festival va forumlarni tashkil etish lozim

Xalqaro darajada yozuvchilar ijodiga bag'ishlangan adabiy festival, seminar va konferensiylar tashkil etish, bu tadbirdorda yozuvchilarining badiiy asarlariiga oid muhokama va sharhlari olib borish turli millat yozuvchilarini bir-biriga yaqinlashtiradi, madaniy almashinuvni kengaytirishga yordam beradi. Bunga misol tariqasida 2011-yildan buyon Singapurda o'tkazib kelinayotgan Singapur Writers Festival (SWF) ni keltirish mumkin. Singapur Yozuvchilar Festivali Singapur Milliy San'at Kengashining tashabbusi bilan tashkil etiladigan muhim adabiy tadbir hisoblanadi. 1986-yilda tashkil etilgan festival Singapur va Osiyo adabiyotini xalqaro miqiyosda targ'ib qilish, shuningdek global yozuvchilarini singapurliklarga tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. U dunyodagi kam sonli va ko'p tilli adabiy festivallardan biri bo'lib, Singapurning rasmiy tillarida – ingliz, malay, xitoy va tamil tillarida olib boriladi.

Bu festivalning asosiy belgilari:

- Ko'p tilli yo'nalish: SWF Singapur madaniy xilma xillagini aks ettiruvchi ko'p tilli adabiyotni ta'kidlaydi.

• Mahalliy va xalqaro ishtirok: Festivalda mashhur singapurlik yozuvchilar masalan, Meira Chand va Cyril Wong, xalqaro yulduzlar qatorida esa Neil Gaiman va Michael Chabon ishtirok etadi

• Yillik tadbir: 2011-yildan buyon festival har yili o'tkazilish kelinmoqda va minglab ishtirokchilarni jalg qiladi. Unda o'qishlar, seminarlar, yozuvchilar uyiga ekskursiyalar, diskussiyalar va spektakllar bo'lib o'tadi.

Festivalda shuningdek, **Golden Point Award** ( Oltin Nuqta Mukofoti ) taqdim etiladi. Bu Singapurning rasmiy tillarida she'r va qisqa hikoyalar uchun milliy tanlovdir. U yangi adabiy iste'dodlarni ochish va lejajakdag'i yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu festival har yili turli xil mavzularga bag'ishlanadi. Masalan, 2024-yil 8-noyabrdan 17-noyabrgacha bo'lib o'tgan festivalning mavzusi "**In our nature**" ( Tabiatimizda ) bo'lib, insонning tabiat bilan aloqasiga qaratildi. 2025-yil uchun ushbu festivalni tashkillash 7-noyabrdan 16-noyabrgacha rejalashtirilgan. Festivalning mavzusi "**Shape of to Things Come**" ( Kelajakning Shakli ). SWF adabiyotga bo'lgan mehrni rivojlantirish va madaniy almashinuvni qo'llab quvvatlash uchun muhim platforma bo'lib qolmoqda.[3, <https://www.futuremarketinsights.com/reports/literary-tourism-sector-outlook>]

Mamlakatimizda ham Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-apreldagi 338-soni "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini kompleks rivojlantirish, jumladan, tog'li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish yuzasida chora-tadbirlar dasturi"da 2019-yil 9-maydan boshlab har yili Abdulla Oripov xotirasiga bag'ishlangan **Golden Word** xalqaro adabiyot festivalini o'tkazish vazifasi belgilangan edi. Dastur ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Qahramoni, madhiyamiz muallifi Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish, Shahrisabzni "Festivallar shahri"ga aylantirish maqsadida 2019-yil 8-9 may kunlari Qarshi va Shahrisabz shaharlarida " Oltin so'z " I xalqaro adabiyot festivali o'tkazilgan. Festivalda dunyoning turli mamlakatlaridan shoirlar, yozuvchilar hamda jurnalistlar ishtirok etgan, festival doirasida Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan maktab internatida adabiy uchrashuv o'tkazilgan, Qarshi va Shahrisabz shahridagi tarixiy-madaniy maskanlarga, G'uzor tumanidagi "Tohir-Zuhro" majmuasiga tashrif, mushoiralar tashkil etilgan. 2020-yilning 19-20-dekabr kunlari "Oltin so'z" II xalqaro adabiy festival pandemiya sababli virtual formatida o'tkazilgan. Unda dunyoning 50 ta mamlakatidan 200 nafardan ortiq ijodkorlar ishtirok etishgan. Osiyo-Afrika, Yevropa-Amerika ijodkorlari ingliz tilida, hind, turk, ispan, o'zbek, italyan shoirlari o'z tillarida seksiyalar tashkil etishgan.[4, <https://daryo.uz/k/2019/05/07/ozbekistonda-abdulla-oripov-xotirasiga-bagishlangan-oltin-soz-xalqaro-adabiyot-festivali-otkaziladi>]

Biroq qarorga muvofiq har yili o'tkazilishi lozim bo'lgan "Oltin so'z" xalqaro adabiy festivali 2021-yildan buyon tashkillanmay kelmoqda. Bu esa madaniy tadbirning davomiylikka ega bo'lishi uchun zaruriy choralar ko'rilmaganligi va davlatning madaniy siyosatidagi kamchiliklarini ko'rsatadi.

Yana bir misol tariqasida 2022-yil sentyabrida Toshkent va Buxoro shaharlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan "**Buyuk ipak yo'lidiagi adabiy festivali**" ( Silk Road Lit Fest ) to'xtatilgan. Xususan, O'zAda e'lon qilingan maqolada ushbu xalqaro festival Yozuvchilar uyushmasi, Tashqi ishlar hamda Turizm va madaniy meros vazirliklari, mamlakatning Londondagi elchixonasi va "Buyuk ipak yo'lidiagi adabiy festival" ma'muryati hamkorligida o'tkazilishi qayd etilgan. O'zAga itervyu bergen Yozuvchilar uyushmasi Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limi raisi Rustam Musurmonning aytishicha, 2021-yilda O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi turizm brendi elchisi **Sofi Ibbotson** uyushmaga mazkur festivalni o'tkazish taklifi bilan murojaat qilgan. Festival direktori hisoblangan Sofi Ibbotson O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi bilan kelishgan holda tadbir dasturini ishlab chiqqan. Hato ishtirokchilar ro'yhati ham shakkantirilgan. Bu xalqaro adabiy festival doirasida yigirmadan ortiq tadbirlar: adabiy munozaralar yangi kitoblar taqdimoti, dolzarb adabiy mavzularagi seminarlar o'tkazilishi, festival badiiy tarjima, o'zbek adabiy an'analari, o'zbek mualliflarining asarlarini Yevropa nashrlarida chop etish, zamonaviy sharoitlarda noshirlik biznesini rivojlantirish kabi masalalarni qamrab olishi rejalashtirilgan edi. Festivalni Buyuk Britaniya tomonidan tashkil etishda "**Shute Festival**" adabiy festivali ma'muryati, Osiyo adabiy agentligi, Osiyo ishlari bo'yicha Qirollik jamiyatni Britaniya kengashi ishtirok etishi belgilangan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi va madaniyatiga oid asarlar chop etgan xorijlik yozuvchilar, noshirlar,

adabiy agentliklar va kitob sotuvchilar, o'zbek yozuvchilar va shoirlar ishtiroki kutilayotgani ta'kidlangan. Jumladan, Britaniya tomoni ma'ruzachilari sifatida taniqli tarixchi olimlar – **Uilyam Dalrimpl, Piter Frankopan**, O'zbekistonga oid kitoblar muallifi **Kerolayn Iden** qatnashishi rejalashtirilgan. Biroq, tadbirga oz vaqt qolganda Yozuvchilar uyushmasi hamkorlik qilish fikridan qaytgan.[4, <https://oyina.uz/uz/article/949>] Bunga sabab esa **birinchidan**, tashabbuskorlar taqdim etgan ilk dastur loyihasida o'zbek adabiyotiga aloqasi bo'lmagan masalalarni asosiy o'rinni egallagani. Masalan, "Madaniy repatriatsiya va o'tmishni xisobga olish", "O'rta Osiyoda arxeologiyani nima kutmoqda", "Sayohatlar haqida maktub", "Botanik san'at", "Nikita Makarenko bilan uchrashuv"; **ikkinchidan**, Yozuvchilar uyushmasi tomidan taklif qilingan dasturda ko'satilgan: "She'riyat va makon" (o'zbek she'riyatining bugungi kuni haqida suhbat. Moderator: O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim), "Abdulla Qodiriy uy-muzeysi yozuvchi Xurshid Davron bilan suhbat", "XXI asr Britaniya va o'zbek nasri: avangard va an'anaviylik" (Moderator: O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton), "Adabiyot va kino: badiiy asarni ekranga ko'chirilishi. Erkin A'zam va britaniyalik ma'ruzachi ishtirokida adabiy suhbat" kabi mavzularning tashabbuskorlar tomonidan ayrimlarinigina qabul etilishi; **uchinchidan**, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2021-yil ohirida 10 nafar xorijlik mehmonga mo'ljallab smeta hujjatlari tashkillanganligi va tegishli mablag'lar ajratilganligi, biroq 2022-yil may oyida tashabbuskorlar 36 kishidan iborat ro'yxatni uyushmaga taqdim etganligi; **to'rtinchidan**, bo'lib o'tgan adabiy tanlovga S.Ibbotson adabiy tanlov hakamlariga O'zbekiston tomonidan vakil qabul qilinmasligini aytishi; **beshinchidan**, festival dasturida Yozuvchilar uyushmasi tomonidan istalgan Osiyo adabiy agentligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tasida muzokaralarga mutlaqo vaqt ajratilmaganligi; **oltinchidan**, Abdulla Qodiriy uy-muzeysi taniqli yozuvchi Xurshid Davron bilan o'tadigan adabiy suhbat o'rniغا konsert dasturini yushtirish g'oyasini tashabbuskorlar tomonidan berilishi va bir qator boshqa talab va takliflarning rad etilishidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, Yozuvchilar uyushmasi zimmasiga faqat festivalni tashkillash va moliyalshitirish vazifalarini yuklatilishi, o'zbek adabiyotini xorijliklarga ko'proq tanishit imkoniyatining kamliyi uyushma e'tiroziga sabab bo'lgan. Yozuvchilar uyushmasi adabiyotga an'anavy nigoj bilan qaragan bo'lsa, narigi taraf adabiyotni kattaroq kontekstga joylashni shu orqali festivalni madaniyat va turizm tadbiriga aylantirishni istagan. Va bu masala mavhumligicha qolgan. Aslida buning zamiridagi g'arbiy qarashlar va yondashuvlardagi o'zaro tushunmovchilikdir. Bugun rivojlanish jihatdan eng orta qolgan Afrikada adabiy festivallarni o'tkazish an'anaga aylanib borayotgan bir paytda boy adabiy merosi va kundan kunga rivojlanib, sayqallanib borayotgan zamonaviy adabiyotiga ega bo'lgan O'zbekistonda yuqorida kabi holatlarni sodir bo'lishi va bu kabi katta mashtabni qamrab olgan adabiy tadbirlarini o'tkazilmasligi nafaqat adabiyot sohasi balki turizm sohasi uchun katta yo'qotishlardan biri deb bilaman. Chunki, bunday festivallarning o'tkazilishi natijasida yozuvchi va shoirlarimiz asarlar uchun Yevropa nashrlariga kengroq yo'l ochiladi, bu orqali xorijiy kitobxonlarni yurtimizning boy adabiy va madaniy an'analari bilan tanishtirish, qiziqitirishga keng imkoniyat yaratadi. Adabiyotni turizm orqali, turizmni adabiyot orqali targ'ib qilish bugungi kunda dunyodagi eng zamonaviy usullardan biridir. Bu usul orqali adabiyot va turizm o'zaro bog'liq holda rivojlanadi.

2. Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalananish

Texnologiyalar taraqqiy etgani sari insoniyatga kundan kunga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda yozuvchilar haqida virtual turlar, audiovisual materiallar, interaktiv multimedia kontentlar yaratish; virtual kutubxonalar tashkillash, mashhur yozuvchilar va ularning ijodi haqida jahon tillarida elektron platformalar yaratish, ularning ijodi merosini raqamli platformaga o'tkazish, jahon auditoriyasiga bag'ishlangan ochiq resurslarni shakkantirish; yozuvchilar marshrutlari bo'yicha mabil ilovalar, interaktiv xaritalar hamda sayohat qiluvchilar uchun navigatsiya tizimini yaratish; ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalangan holda yozuvchilar ijodini keng tarqatish, badiiy asarlardan yangi avlodga qiziqarli va ibratli kontentlar yaratish, podkastlar, video-suhbatalar, multimedia loyihalarini tayyorlash lozim. Bularni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektorlar hamkorligi, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, adabiy turizm loyoihalarini moliyalshitirish, grantlar va imtiyozlar tizimi, innovatsion loyihalarini rag'batlantirish lozim. Adabiy turizmni rivojlantirish faqat turizm sohasi emas, balki mamlakatning madaniy diplomatiyasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi hamdir.

### 3. Raqamli marketing xizmatlarini amalga oshirish

Hozirgi jamiyat rivojlanishning shunday bosqichida turibdiki, bu bosqichda yangi axborot texnologiyalarning tez tarqalish jarayoni va shu jarayon ta'sirida ijtimoiy iqtisodiy hayotning ko'plab jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Global axborot va kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan elektron muhitning mavjudligi va shu muhitning afzalliklaridan foydalangan holda raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va foydalishni lozim. Masalan, QR kodlar orqali adabiy meros haqida ma'lumot olish va Raqamli marketing orqali adabiy turizmni targ'ib qilish samaradorligini oshirish mumkin. Kontent marketingi va hikoya yaratish usullari turistlarni jalb qilishda muhim ro'l o'ynaydi. **Kontent marketingi** – bu ishonchni qozonish va potentsial mijozlarni jalb qilish, iste'molchilar uchun foydali ma'lumotlarni yaratish yoki tarqatishga asoslangan marketing usullari to'plami. Kontent marketing to'g'ridan to'g'ri reklama emas, balki bilvosita auditoriyani ishontiradigan yuqori sifatli, dolzarb va qimmatli ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatishni o'z ichiga oladi.[6,78]

### 4.Yosh avlodda adabiy merosga nisbatan qiziqishini uyg'otish

Adabiy meros yoshlar xarakterini shakllantirishda, milliy qadriyatlarni, tarix va madaniyatimizni tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, adabiyot millatning ma'naviyatini ta'minladigan omil bo'lib, ulami vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Umumiyo'rta'lim muassasalarida haftaning har juma kuni o'tkaziladigan ma'naviyat soatlardida adabiy turizm bo'yicha targ'ibot ishlarni olib borish va albatta adabiy ekskursiyalar va sayohatlar tashkil etish lozim. Chunki, dono xalqimizning hikmatli gapi bor "Ming marotaba eshitgandan, bir marotaba ko'rgan afzaldir". Darhaqiqat, bunday sayohatlarning tashkillanishi, o'quvchi yosholarning sevimli yozuvchilari yashagan, ijod qilgan joylarini o'z ko'zlar bilan ko'rsi, zamonamizning mashhur yozuvchilari hamda shoirlari bilan o'tkaziladigan adabiy ucharshuvlar qalblariada adabiyotga bo'lgan muhabbatni yanada oshirishga, badiiy asarlar mohiyatini teran anglab yetishiga, his etishiga turki bo'ladi. Katta taassurot bilan qaytg'an o'quvchi shubhasiz bu sevinchini oila a'zolari bilan bo'lishishi tabiiy. Natijada nafaqat o'quvchida balki uning oilasida ham adabiy meroslarga nisbatan hurmat va qadr tuyg'usi shakllana boshlaydi.Va bu ichki adabiy turizmni rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

### Tarjimashunoslikning adabiy turizmni rivojlanirishdag'i ahamiyati

Bugungi kunda jahon miqiyosida tarjimaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalqaro aloqalari rivojlangan mamlakatlar uchun tarjima xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj tabiiy holdir. Tarjima turli xalqlarni iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan birlashtiruvchi hamda davlatlararo munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan tarjima faoliyatini turli xalqlarni yaqinlashtiruvchi ko'priq deb ta'riflash mumkin. Tarjima azaldan insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Qadim zamonlardan boshlab tarjima jarayoni turli xalqlar o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalarni o'matishda, millatlararo adabiy hamkorlikni rivojlanirishda mustahkam poydevor vazifasini o'tagan. Tarjima insoniyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Hozirgi kunda tarjima milliy adabiyotni boyitish, ma'naviy qadriyatlар va g'oyalar almashtish vositasi deb qaraladi, tarjimon esa haqiqiy ijodkor adib sifatida e'tirof etiladi. Shu sababdan adabiy turizmni xalqaro miqiyosda yozuvchilar ijodini tanitish orqali rivojlanirishda tarjimashunoslik sohasi katta ahamiyat kasb etadi.

XX asrda tarjima sohalarida qilingan rang-barang ishlar tarix bo'lib qoldi. Bu asr o'zbek tarjimonlarining aksariyati badiiy ijodkorlik bilan shug'llanuvchi adib, shoir, dramaturg, jurnalist, tarjimonlar edi. XX asming boshida Maxmudxo'ja Behbudiy bizning ma'rifiy-madaniy dasturimiz sifatida O'zbekiston yoshlari to'rt tilni bilmaklari lozim. Bu bizning dunyo zamonaviy madaniyati va ilm-fanini egallashimizga, dunyoda o'z o'mrimizga ega bo'lishimizga, ilg'or millatlar qatoridan o'rin olishimizga xizmat qiladi, degan g'oyani ko'tarib chiqdi va butun kuch-g'ayrati bilan shu oliyanob g'oyani amalga oshirishga intildi. XX asr madaniyatida yorqin iz qoldirgan bizning adaib, shoir va tarjimonlarimiz Abdulla Qodiriy, Cholpon, Oybek, G'afur G'ulom, Uyg'un, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Sidqiy Xondayliqiy, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy, Hamid G'ulom, Nabi va Abdurahmon Alimuhammedov Behbudiyning idealiga javob beradigan to'rt tilli tarjimon edilar. O'tgan asrda O'zbekistonda Sharq tillaridan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi ulkan olim, ulamo tarjimonlar otryadi maydonga chiqib arabshunos, urdushunos, forsshunos, turkshunos allomalar Ubaydulla Karimov , Abdufattoh Rasulov, Abduqodir Murodov, Shoislom Shomuhamedov, Chustiy , Abdulla Nosirov, Ashraf Ahmedov, Anisiy, Xurshid, tarjimashunoslik maktabi asoschi G'aybulla Salomov singari foziil tarjimonlar asrlar qarida bizga sirlarini ochmay

yotgan Farg'oniy , Xorazmiy, Zamaxshariy, Ibn Sino, Beruniy, Xayyom, Xofiz, Sa'diy asarlari bilan o'z ona tilimizda tanishish imkonini berdilar.[7,14] Yuqorida keltirilgan tarjimon olimlarimizning say-harakatlari tufayli Yevropa adabiyoti: Shekspir asarlari ("Hamlet", "Otello", "Qirol Lir"), Gyote ("Faust"), Tolstoy ("Urush va tinchlik", "Anna Karenina"), Dostayevskiy ("Jinoyat va jazo"), Chekovning birqancha hikoyalari; Zamonaviy jahon adabiyoti durdonalari: Gabriel Garsia Markes ("Yolg'izlikning yuz yili"), Ernest Heminguey ("Alvido Qurol", "Chol va dengiz"), Jorg Oruell ("1984"), Kafka ("Jarayon"); Sharq adabiyotidan: Firdavsiy ("SHohnoma"), Umar Hayyom ruboiliali, Hofiz g'azzallari, Sa'diy ("Guliston", "Bo'ston") kabi jahon adabiyoti va madaniyatining nodir namunalari bilan o'z tilimizda tanishish adabiy dunyoqarashimizni kengaytirish, boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati va qadriyatlarni o'rganish va dunyoga yangi ko'z bilan qarash imkonini berdi. O'zbek tiliga tarjima qilingan jahon adabiyotini asarlari salmog'i olti yuzdan oshadi. Bugun o'zbek kitobxonasi sevib mutolaa qilmoida.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotining sara namunalari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan. XX asrda yashagan Abdulla Qodiriy, Oybek, Primqul Qodirov, Odil Yoqubov kabilarning asarlari rus tilida jaranglagan.[8,97] Eng ko'p tarjima qilingan o'zbek adabiyoti namunalari: Alisher Navoiy asarlari – Navoiyning "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari ingliz, nemis, fransuz, rus, turk tillariga; Abdulla Qodiriy romanlari – "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlari rus, ingliz, nemis, fransuz, turk; Oybek asarlari – "Qutlug' qon", "Navoiy" kabi asarlari rus, ingliz ; G'afur G'ulom asarlari - "Shum bola" va boshqa hikoyalari rus, ingliz, nemis; Abdulla Qahhor asarlari – "Dahshat", "Sinchalak" kabi asarlari rus, ingliz, nemis; Odil Yoqubov – "Ulug'bek xazinas" va "Ko'hna dunyo" romanlari rus, ingliz; Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyati rus, – ingliz ; Tohir Maliking "Shaytanat" romanı turk va rus; O'tkir Hoshimov asarlari – "Dunyoning ishlari", "Ikki eshil orasi" kabi asarlari rus, ingliz; Primqul Qodirov – "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovon" romanlari rus, ingliz, turk; Said Ahmad – "Ufq" trilogiyasi va "Kelinlar qo'zg'oloni" asarlari rus, ingliz; Murod Muhammad Do'sting "Lolazor" romanı turk, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda adabiy tarjima sohasiga katta e'tibor berilmoqda va yangi avlod yozuvchilarining asarlari ham chet tillarga tarjima qilinmoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyotidan chet tillarga tarjima qilinagan asarlari: Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani, Erkin A'zamning "Shovqin" va boshqa hikoyalari, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va "Isyon va itoat" romanlari, Jamol Kamolov va Muhammad Yusufning she'riy to'plamlari, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari to'plami, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari, Shavkat Rahmon, Salomat Vafo, Usmon Azimning she'riy to'plamlari Nazar Eshonqul ning "Maymun yetaklagan odam" va boshqa hikoyalari ingliz va rus tillarga tarjima qilingan.

Bu ro'yxatda zamonaviy o'zbek adabiyotining benazir yozuvchisi **Isajon Sultan** nomini alohida ta'kidlashni lozim deb bildim. Isajon Sultanning asarlari o'zining badiiy yuksak savyasi, chuqur falsafiy mazmuni va betakror obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlarida sharqona donishmandlik , sufiylik falsafasi va zamonaviy dunyoqarashlari uzyvi bog'lanib ketgan. Isajon Sultanning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijning bir qator mamlakatlarida ham e'tirof etilib yusak unvonlarga sazovor bo'lgan. Yozuvchi o'zbek adabiyotini xalqaro miqiyosga olib chiqqan ijodkorlardan sanaladi. Masalan, 2011-yilda "**Qismat**" hikoyasi AQSHning Chikago shahrida chop etiladigan "**Leksikon**" adabiy jurnalni tomonidan e'lon qilingan xalqaro tanlov g'olib deb topilgan. 2014-yilda "**Bog'i Eram**" hikoyasi Turkiyaning Alaniya shahrida chiqadigan "**Guncel Sanat**" jurnalining xalqaro adabiy tanlovida g'olib deb topilgan. 2017-yilda "**Shamolli kecha**" hikoyasi B.B.Bianki nomidagi Rossiya-Belorussiya xalqaro adabiy tanloving maxsus sovriniga sazovor bo'lgan. [9,379]

Keyingi yillarda hikoya va romanlari bilan kitobxonalar e'tiborini qozonayotgan Isajon Sultan asarlari turk kitobxonlarini ham befarq qoldirmayapti. Adib hikoyalari Turkiyaning markaziy jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanma va o'zbek adabiyotidan tuzilgan antologiyalardan joy olgan. Yozuvchi hikoyalari kitobxonlarga ziyrak tarjiyomon, o'zbek madaniyati ixlosmandi Husayn Oqbosh bilan birgalikda kitob holida tarjima qilinadi. Tarjima qilingan hikoyalari mas'ul muharrir Otaturk universiteti dotsenti, o'zbek adabiyoti va folklorining zahmatkash tadqiqotchisi Husayn Boydemirga yuboriladi. Husayn Boydemir niyoyatda sinchkovlik bilan tarjimanini ko'zdan kechirib qiyoslaydi. Kitob shu tarzdagi jarayonlardan o'tib nashriyotga beriladi va **Guncel Sanat** jurnalining Baygenç nashriyotida taniqli yozuvchi Arslan Bayir so'zboshisi bilan chop qilinadi. To'plamga yozuvchining 8 ta hikoyasi kiritilgan. "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Mansub-1984", "Qo'riqchi" (M.Yo'ldoshev tarjimasi), "Farishta",

"TODD", "Sofiya" (Husayin Boydemir tarjimasi), "Qismat" (Isajon Sulton tarjimasi) [10,362]

Uning mashhur "Boqiy darbadar", "Navoiy", "Beruniy", "Bilgaxoqon" kabi yigirmaga yaqin asarlari rus, ingliz, turk, ozarbajyon kitobxonalarini tomonidan katta qiziqlish bilan mutolaa qilinmoqda. Buni Isajon Sulton ijodi bo'yicha yozilgan ilmiy maqola, taqriz, adabiy suhbat va muktublar jamlangan "Yetuklik jozibasi" deb nomlangan toplamda keltirilgan xorijlik yozuvchi, tadqiqotchi va tabalabarning yo'ilagan muktublarida bitilgan fikr-mulohazalaridan bilib olsak bo'ladi. Shulardan argentinalik yozuvchi **Viktoriya Kasersnинг** "Isajon Sulton bilan O'zbekistonga sayohat" nomli maqolasi e'tiborimni tortdi. Maqolada muallif "olti bosqichli tanishuv nazariyasi"ni adabiyot orqali bog'lanish imkoniyatlari bilan boyitib, o'zining o'zbek adabiyoti bilan tanishish yo'lini tasvirlaydi. Avval Borxesning "Marvlik Hakim" asari orqali O'zbekiston haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lgan muallif, keyinchalik AQSHning Ayova shtatida tashkillangan xalqaro yozuvchilar dasturida o'zbek shoiri A'zam Obidov bilan uchrashib, uning orqali o'zbek madaniyati bilan yaqindan tanishadi. So'ngra yozuvchi Isajon Sulton bilan o'matilgan do'stlik tufayli o'zbek adabiyoti xususiyatlarini chuhurroq anglaydi va uning "Qismat" hikoyasidagi ramziylik, majoziylik kabi badiiy vositalarni tahlil qiladi. Maqola Argentina va O'zbekiston adabiyoti o'rtaida o'zaro aloqalar va madaniy ko'priklar qurish g'oyasi bilan yakunlanadi.[11/357] Yana bir AQSHning Michigan universiteti tadqiqotchisi **Kristofer Fortning** "Isajon Sulton va Postmodernizm" mavzusidagi maqolasida Isajon Sulton ijodining G'arb adabiy an'analarini kontekstida tahlili amalga oshirilgan. Muallif yozuvchining asarlarini postmodernizm, indianist adabiyoti, magik realizm va postsovet adabiyoti nuqtai nazaridan o'rganadi. Tadqiqotchi I.Sulton ijodining o'ziga xosligini, uning postmodernistik elementlarni an'anaviy bayon uslubi bilan uyg'unlashtirish, inson va tabiat munosabatini tasavvufiy qarashlar asosida qayta anglash, globallashuvga nisbatan murakkab munosabatini ko'rsatadi. Maqolada "Boqiy darbadar" romanii, "TODD", "Sofiya" va boshqa asarlar tahlili orqali yozuvchining badiiy kontseptsiyasini oshib berilgan. Tadqiqotchi Isajon Sulton ijodining betakrorligi – indianistik yondashuvning tasavvufiy g'oyalar bilan uyg'unlashuviga ekanligini

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>
2. <https://wah.news/pages/1>
3. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/literary-tourism-sector-outlook>
4. <https://daryo.uz/k/2019/05/07/ozbekistonda-abdulla-oripov-xotirasiga-bagishlangan-oltin-soz-xalqaro-adabiyot-festivali-otkaziladi>
5. <https://oyina.uz/uz/article/949>

6. Bakirovna K. Z. The Rhythm of the Literary Impact. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 2019.

ta'kidlaydi va uning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish istagini bildiradi.

**Muhokama.** Yuqorida keltirilgan maqolalardagi fikr-mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, tarjimashunoslik va xalqaro adabiy turizm o'rtaisdagi aloqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzu sanaladi. Chunki, adabiy merosni xalqaro miqiyosda tanitish bevosita milliy adabiyot namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida chet elliq kitobxonlarni o'sha adabiyot yaratilgan makonlarga tashrif buyurishga undaydi. Tarjima – ikki millat o'rtaida madaniy ko'priklar vazifasini bajaradi. Tarjima qilingan asarlar asosida o'tkaziladigan xalqaro adabiy anjumanlar, festivallarga xorijiy mehmonlarning tashrifi adabiy turizmnning muhim qismidir. Tarjimashunoslik sohasini rivojlantirish orqali milliy adabiyotning jahon miqiyosida tanilishi ,o'z navbatida, iqtisodiy manfaat keltirish bilan birga, madaniyatlarnaro muloqotni ham kuchaytiradi.

**Xulosa** o'rnda, yozuvchilar merosini tanitish yo'lidagi har qanday sa'y-harakatlardan avvalo adabiy hamjamiyat, so'ngra mahalliy aholi va turizm industriyasiga foyda keltiradi. Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mahalliy aholini jalb qilish muhimdir. Adabiy turizm madaniy qadriyatlarni targ'ib etishning eng samarali usuli bo'lib, yozuvchilar ijodi orqali milliy o'zlikni asrasht uni dunyo miqiyosida tanishtirishga xizmat qiladi. Adabiy turizm sohasini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, barqaror rivojlanish tamoyillari va xalqaro hamkorlik zarur. O'zbekiston madaniyati Markaziy Osyo xalqlarining ko'p asrlik an'analarini va turmush tarzi bilan chambarchars bog'liq boy madaniy meros va tarixga ega bo'lgan mamlakatdir. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, hududida ko'plab me'moriy yodgorliklari, qadimiylar qal'a obidalari, sirli hamda noyob tabiatni, rang- barang afsonalarga boy xalq og'zaki ijodi namunalari va bebaho adabiyoti bilan jahon madaniyatda yetakchi mavqegiga ega. Biz kabi yoshlar oldida, O'zbekiston adabiy merosini xalqaro maydonlarda tanish, adabiy an'analarini davom ettirish va o'zimizdan keyingi yosh avlodiga uzatish, yozuvchilarini xotirasini abadiylashtirish kabi bir qator vazifalar turadi. Bularni amalga oshirishda adabiy turizm sohasida jahon standartlariga mos keladigan yangi innovatsion loyihalarni shakllantirish va bu harakatlarni rag'bathlantrish lozim.

7.Qobilova Z.,& Binnatova, A. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK MASALALARINING NAZARIY ASOSLARI. Interpretation and researches, 1(1), 2023.

8.Tursunova, N. FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 2021.

9. Kurramov.O. Raqamli marketing. – Buxoro;2021.78 b.

10. G'afurov I. Trajima san'ati – Toshkent;2023.14 b.

11. Nazarov B., Sattorova G., Qo'chqorova M. Isajon sulton nasri va badiyati – Toshkent;2017.